

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



## O'QUV USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“RAQAMLI IQTISODIYOT”  
YO'NALISHI**

**“ELEKTRON HUKUMAT”  
moduli bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY  
MAJMUA**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “7” dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** S.Qulmatova-TDUI “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi kata o’qituvchisi, i.f.f.d.

**Taqrizchi:** T.Qo’chqorov - TDIU “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori, i.f.d.

*Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I. LISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>7</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>13</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>37</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>65</b>
<b>VIII. GLOSSARIY .....</b>	<b>69</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>72</b>

## I.ISHCHI DASTUR

### Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020 yil 9 oktyabrdagi 515-sonli buyrug'ida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalarining IT-sohasi bo'yicha professor-o'qituvchilariningraqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kompetentligini oshirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalar, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikbo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, shuningdek, oliy ta'lif amaliyotiga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishnimaqsad qiladi.

"Elektron hukumat" moduliing ishchi dasturi doirasida berilayotgan mavzularning mazmuni elektron hukumatning asosiy tushunchalar, maqsad va vazifalari, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyatlari, elektron hukumat modellari, O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, elektron hukumat interaktiv xizmatlar tizimlari bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**"Elektron hukumat" modulining maqsadi:** elektron hukumat haqida oliy ta'lif muassasalarining IT-sohasi bo'yicha professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish.

#### Modulning vazifalari:

- professor-o'qituvchilarning elektron hukumat bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- professor-o'qituvchilarning ijodiy ilmiy-pedagogik faollik darajasini oshirish;
- ta'lif jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- ta'lif, fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integrasiyasini ta'minlash.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Elektron hukumat” modulining modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar

### **Tinglovchi:**

- elektron hukumat tushunchasini;
- elektron hukumat joriy etishning jaxon tajribasini;
- O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat” tizimi rivojlanish bosqichlari, arxitekturasi va boshqaruv sxemasini bilishi kerak.

### **Tinglovchi:**

- elektron hukumatda o‘zaro munosabat turlari asosidagi axborot tizimlari komplekslaridan foydalanish;
- yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishslash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- elektron hukumat loyihibalarini yaratish;
- “Elektron hukumat” tizimida ishslash samaradorligini oshirish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Elektron huqumat” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Raqamli iqtisodiyot”, “Raqamli texnologiyalar va ulardan foydalanish” va “Zamonaviy tarmoq texnolgiyalari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydoni bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiymashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘uloti
1.	Elektron hukumat tushunchasi, maqsad va vazifalari. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari.	2	2		
2.	Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyat va xavf omillari. Elektron hukumatning modellari.	2	2		

3	Elektron hukumat tizimini joriy etish: tarixi, bosqichlari va tajribasi. Raqamli hukumat	4	4		
4	O‘zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portallari bilan ishlash.	6		6	
5	Elektron huqumat interaktiv xizmat tizimlaridan foydalanish.	6		4	2
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>2</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-ma’ruza. Elektron hukumat tushunchasi, maqsad va vazifalari. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari (2 soat).**

Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari. Elektron hukumat tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari.

**2-ma’ruza. Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyat va xavf omillari. Elektron hukumatning modellari (2 soat).**

Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyati. Elektron hukumatni amalga oshirishning xavf omillari.

**3-ma’ruza. Elektron hukumat tizimini joriy etish: tarixi, bosqichlari va tajribasi (2 soat).**

Elektron hukumat tarixidan. Elektron hukumatni joriy etish bosqichlari. Elektron hukumat joriy etishning xorij tajribasi. Raqamli hukumat

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-amaliy mashg‘ulot.** O‘zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portallari bilan ishlash (4 soat).

**2-amaliy mashg‘ulot.** Elektron huqumat interaktiv xizmat tizimlaridan foydalanish (4 soat).

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

**“Elektron hukumat”** moduli masofaviy shaklda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar asosida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

# I. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

## «Blum kubigi» metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:
  - **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
  - **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtiruvchi savol)**
  - **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
  - **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
  - **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
  - **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**
2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O‘qituvchi kubikni stolga tashlaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

## “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha quyidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### Izoh. KWHL:

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?.*

“KWHL” metodi	
<b>1. Nimalarni bilaman:</b> -	<b>2. Nimalarni bilihni xohlayman, nimalarni bilihim kerak:</b> -
<b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b> -	<b>4. Nimalarni bilib oldim:</b> -


### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qerda (joylashgan, qaerdan olish mukin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

## “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



## “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stady» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni o'quv aniqlashtirish va topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>


## “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lif oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarining bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruba mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarining mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

**Тест****Муаммоли вазият****Тушунча таҳлили  
(симптом)****Амалий вазифа**

### **“Insert” методи**

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilarni orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>Matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-ma’ruza. Elektron hukumat tushunchasi, maqsad va vazifalari. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari (2 soat).**

#### Reja:

- 1.1. Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari.
- 1.2. Elektron hukumat tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari.

**Tayanch iboralar:** *Elektron hukumat, E-Government, davlat organlarining shaffofligi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi; elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi; «yagona darcha» prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish; davlat organlarining hujjatlarini bixillashtirish; elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish; elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish; axborot xavfsizligini ta’minlash.*

#### 1.1. Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari

Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron hukumatning bir qancha ta’riflari mavjud. Keng ma’noda, elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar ko‘rsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTni qo’llash sifatida belgilanishi mumkin.

O‘ziga xos ravishda, elektron hukumatni “davlat oiganlari ko‘rsatayotgan xizmatlarning shaffofligi, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish tizimi” deb tushunish mumkin. Shuningdek, elektron hukumat AKTni ko‘llagan holda davlat organlarining yanada samarali faoliyat ko‘rsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlariga sifatli xizmatlar ko‘rsatishidir.

Elektron hukumat atamalarini quyidagi to‘rtta asosiy qismlari orqali umumlashtiriladi hamda quyidagicha tavsiflanadi<sup>1</sup>.

1. AKT dan foydalanish (kompyuter tarmoqlari, internet, faks va telefon).
2. Hukumat faoliyatini qo’llab-quvvatlash (axborot bilan ta’minlash, xizmatlar, mahsulotlar, ma’muriy boshqaruv).
3. Fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, siyosiy yoki ma’muriy jarayonlariga fuqarolarni targ‘ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish)
4. Belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarni jarayonlarda qatnashish qiymatini belgilash.

Jadval 1.1  
Elektron hukumat ta’riflari

<sup>1</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-17

Birlashgan Millatlar Tashkiloti	Elektron hukumat – fuqarolarga davlat organlari tomonidan axborot va xizmatlarni etkazib berish uchun Internetdan foydalanish.
Jahon banki	Elektron hukumat davlat organlari axborot texnologiyalaridan foydalanib fuqarolar, tadbirkorlik sub'ektlari va boshqa davlat organlari o'rtafigi o'zaro munosabatlarni yaxshilashni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga davlat xizmatlarini yaxshiroq etkazib berish, biznes va ishlab chiqarish bilan o'zaro muloqotni takomillashtirish, kerakli ma'lumotlarni olish orqali fuqaro huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, yoki yanada samarali davlat boshqaruvini amalga oshirish.
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	Elektron hukumat termini hukumat tomonidan AKTdan foydalanib, bir qator amaliy funksiyalarini to'laqonli bajarishi nazarda tutadi. Xususan, Internet va tegishli texnologiyalar tomonidan taklif etilgan tarmoq salohiyati tuzilmalari va hukumatning ishlash jarayonini transformatsiyasi tushuniladi.

*Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini, shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;
- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;
- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;
- aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtafiga axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «yagona darcha» prinsipini joriy etish;
- tadbirkorlik sub'ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;
- tadbirkorlik sub'ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;
- naqd bo'limgan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

*Elektron hukumatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:*

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;
- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;
- «yagona darcha» prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat organlarining hujjatlarini bixillashtirish;

- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta’minlash.

Elektron hukumat imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida ko‘pgina davlatlar o‘zlarining elektron hukumatni rivojlantirish siyosiy rejalariga kiritishmoqda. Dastlabki e’tibor AKTdan foydalanish orqali davlat ishlari samaradorligini oshirishga qaratildi. Shu bilan birga, elektron hukumat xizmatlariga davlat tomonidan cheklangan investitsiyalar ta’siri natijasida, 2000 yilning o‘rtalarida fuqaroga yo‘naltirilgan yondashuv tomon natijalar o‘zgardi. Ushbu yondashuv natijasida hukumat xizmatlarini yetkazib berish jarayonida fuqarolarning davlat xizmatlariga turli extiyojlarining mosligini ta’minlash bиринчи o‘ringa qo‘yilganligi orqali sezilarli o‘zgarishlarga sababchi bo‘ldi. Bugungi kunda elektron hukumat nafaqat davlat sektori vazifalari va jarayonlarini rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash uchun bir muhim vosita, balki hukumatni o‘zgartirishga va xizmat ishlab chiqish hamda yetkazib berish uchun yangi yondashuvlarni yaratishda asosiy hisoblanadi.

Umuman olganda, onlayn xizmatlarning ko‘payishi, ushbu xizmatlardan yanada kengroq foydalanish, o‘z navbatida elektron hukumat tizimining ta’siri katta ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, elektron hukumat, hukumat shaffofligi va ichki samaradorlikka ta’sir etib barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun elektron fuqarolar va elektron biznes ishtiroychilarining muhim ommasi mavjud bo‘lishligini talab qiladi. Elektron hukumat xizmatlari foydalanuvchilarining muhim ommasining ko‘payishi, ana’naviy xizmat ko‘rsatish usulidan voz kechib, elektron hukumat xizmati ko‘rsatish usuliga o‘tib ketishlari talab etiladi. va bu jarayon osonlik bilan amalga oshmaydi.

Elektron hukumat tizimini joriy etish, ishlatishda qachonki ko‘pchilik aholining talablari va ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi imkoniyatlari bo‘lsagina tizim muvafaqiyatga erishadi. Aholi talablarining bir qismi aholining ushbu tizim haqidagi bilimlarining yetarli bo‘lganligi, uning imkoniyatlari hamda davlat xizmatlarini tezda va yaxshi xizmat ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Fuqaro va tadbirdorlar elektron-hukumati xizmatlaridan foydalanishda qiziqishlari yoki motivatsiyalari, aktual, oson olish mumkin bo‘lgan raqamli kontent xizmatlarini taqdim etishlari lozim.

Bulardan tashqari davlat jamoaga elektron ko‘rinishdagi xizmatlarga bo‘lgan ishonchni oshirishida ma’lumotlarni himoyalash va uning konfidensialligini ta’minlashini nazarda tutishi kerak.

Elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish talablari va qo‘llab quvvatlash darajasini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- ko‘p kanalli yagona oyna umumiylarini xizmatlarni yetkazib berish infratuzilmasini, avtonom ravishda jamoaga xizmat ko‘rsatish markazi va joylari, jumladan telemarkazlar, chaqiruvlarni qayta ishlash markazlari, veb va mobil portallarini ishlab chiqish;
- AKT ishtiroy etgan operatsiyalarni va raqamli muhitdagi barcha o‘zaro munosabatlarga jamoa tomonidan ishonch bildiradigan choralarini amalga oshirish;
- belgilangan talablarni qoniqtiradigan, qulay kontent va xizmatlar, shu jumladan “ilovalar ishlashini tugatuvchi” deb ataluvchi dasturlarni ishlab chiqaruvchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish;
- elektron xizmatlar va ularning imkoniyatlarini kengaytirish hamda takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

## **1.2. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri xisoblanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish O‘zbekistonning istiqboldagi taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda milliy axborot tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida zamонавиу axborot texnologiyalari hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, elektron hukumatini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron hukumatni shakllantirishning xuquqiy asoslarini mustaxkamlash maqsadida “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron xujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Davlat xokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

2013 yil 1 iyulda joriy qilingan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qanchadan-qancha aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qiluvchi 267 dan ortiq interaktiv davlat xizmatlari elektron shaklda ko‘rsatila boshlandi. Ushbu xizmatlar ahamiyatini o‘tgan davr mobaynida foydalanuvchilar tomonidan portalga 564 ming murojaat qilinganidan ham ko‘rshimiz mumkin.

Ta’lim, bank-moliya, bojxona, soliq va sud-xuquq tizimlarida zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi bugungi kunda yuqori samara bermoqda.

Elektron hukumat ishtirokchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik, davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatilishiga xizmat qiluvchi markazlashgan ma’lumot bazalarini to‘liq shakllantirish, davlat organlarining o‘z ishida zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yetarli darajada joriy qilish, aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda “yagona darcha” tamoyilidan to‘liq foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlash, ularga keng qulayliklar yaratish, ularning vaqtlarini tejash, bexuda ovoragarchiliklar va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Qonun elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik doirasida davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Qonun 5 ta bob va 34 ta moddadan iborat. Qonunda uning maqsadi va vazifalari, asosiy tushunchalari, elektron hukumatning asosiy prinsiplari, uning ishini tashkillashtirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishga qo‘yiladigan talablarga oid normalar belgilangan. Shuningdek, Qonunda elektron hukumat infratuzilmasi, bu sohadagi davlat boshqaruvi, davlat organlarining elektron hukumat doirasidagi o‘zaro hamkorligiga oid munosabatlar tartibga solingan.

Elektron hukumat, davlat xizmati, idoralararo elektron hamkorlik qilish, elektron davlat xizmati, elektron davlat xizmatining reglamenti, elektron hukumatning yagona identifikatorlari kabi tushunchalar qonunchilikka ilk bor kiritilmoqda va ularga tegishli ta’rif berilmoqda. Qonunda elektron hukumat tizimining asosiy prinsiplari mustaxkamlangan. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, “yagona darcha” prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish, axborot xavfsizligini ta’minlash kabi

prinsipler shular jumlasidandir.

Qonunda elektron hukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solish normalari belgilangan. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasiga elektron hukumat sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu sohadagi davlat dasturlarini tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish vazifalari yuklangan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi elektron hukumat sohasidagi vakolatli organ sifatida elektron hukumat prinsipleriga muvofiq elektron hukumat sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Davlat organlarining elektron hukumat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Davlat organlari esa elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadilar, axborot resurslari va tizimlarini, shuningdek, elektron davlat xizmatlarini joriy qilish, rivojlantirish va integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Qonunga muvofiq foydalanuvchilar davlat organlari faoliyati to'g'risida axborot olishlari yoki ularga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatilishi mumkin. Qonunda ushbu elektron davlat xizmatlari turlariga talablar, ulardan foydalanish uchun so'rovlar yuborish tartibi, foydalanuvchilarning xuquqlari belgilab berilgan.

Qonunda belgilanganidek, axborot davlat xizmati aholining axborotga bo'lgan extiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda davlat organlari o'z faoliyatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib boradi.

Interaktiv davlat xizmatining joriy qilinishi esa, aholi va davlat organlari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Qonunda elektron davlat xizmatlarining sifatini baxolash tartibi hamda baholash natijalarini xisobga olgan holda davlat organlarining elektron davlat xizmatlarining sifatini oshirish choralarini ko'rish uchun majburligi belgilangan. Bu esa davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirish prinsipiiga mos keladi

Qonunning ko'chga kirishi orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

Birinchidan, mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimini joriy etish va rivojlantirishning qonuniy asoslari yaratilib, ushbu tizimni shakllantirish, to'laqonli ishslashini ta'minlash va tizimli rivojlantirishga zamin yaratiladi;

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan demokratik bozor isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan taqiqlash, tadbirdorlik faoliyatini erkinligini kafolatlash kabi vazifalar ijrosi ta'minlanishiga asos bo'ladi;

Uchinchidan, davlat xokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, jumladan boshqaruv va ma'muriy ish unumdoorligi oshib, ularning jamiyat oldidagi xisobdorligi, ochiqligi ta'minlanadi. Pirovardida xalqning davlat organlariga ishonchi yanada ortadi.

To'rtinchidan, aholi va tadbirdorlik sub'ektlari uchun davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish qulayliklari oshadi. Binobarin, davlat organlari faoliyatiga innovatsiya g'oyalari izchil joriy qilinadi, biznes sohasi, xujjat aylanish mexanizmlari takomillashtiriladi, fuqarolarga uyi yoki ish xonasidan turib elektron shaklda murojaat qilish, ma'lumotnoma va boshqa xujjatlarni olish yoki tadbirdorlik faoliyatini tashkil qilish imkoniyatini beradigan interaktiv xizmatlar ko'rsatishini ta'minlaydi.

"Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi yuqorida sanab o'tilgan natijalar bilan bирgalikda mamlakatimizda demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash yo'li bilan chet el investorlarini jalb qilishga, xalq farovonligini, yurt ravnaqini yanada oshirishga, mamlakatimizda barqkapop iqtisodiy

o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi hamda xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Elektron hukumat tushunchasini tushuntirib bering.
2. Elektron hukumatning vazifalarini sanab bering.
3. Elektron hukumatning qanday prinsiplari bor?
4. Elektron hukumat tizimini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslariga nimalar kiradi?.
5. "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi Qonuni O‘zR da qachon qabul kilingan?
6. "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi Qonunning maqsad va vazifalari haqida gapirib bering?

### **Adabiyotlar va internet saytlar:**

1. "Elektron hukumat" to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2015 yil 9 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda. 3-15 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son Qarori.
3. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/02/01/e-government/>

## **2-ma’ruza. Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyat va xavf omillari.**

### **Elektron hukumatning modellari (2 soat)**

#### **Reja:**

- 2.1. Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyati.
- 2.2. Elektron hukumatni amalga oshirishning xavf omillari.

**Tayanch iboralar:** *Elektron hukumatning prinsiplari, G2C, G2B, G2G, G2E, G2N, Integratsiyalashgan milliy moliya axborot tizimi, Mahalliy elektron hukumat axborot tizimi, Ta’lim axborot tizimi, Hukumat elektron xujjat almashinuvi, Biznes jarayonlarni maqbullashtirish.*

#### **2.1. Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyati.**

Elektron hukumat tizimining mamlakatda muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini quyidagi 4 ta maqsadlarning bajarilganligi asosida baho berish mumkin:

- Onlayn hukumat xizmati,
- Qog‘ozsiz hukumat,
- Bilimga asoslangan hukumat,

- Shaffof hukumat.

Ushbu to‘rtta maqsadlarga erishish uchun elektron hukumat tizimi hukumatning bir necha darajalarida tashkillashtirilgan bo‘lishi lozim.

Hukumat boshqaruvining har bir darajasida bajariladigan 3 ta asosiy vazifalar mavjud:

- (1) innovatsion fuqaro xizmatlari;
- (2) innovatsion biznes xizmatlari;
- (3) innovatsion hukumat ichidagi ishlari.


Elektron hukumatining bir necha qirralari mavjud va foydalanuvchilar va ularning o‘zaro munosabatlari assosida quyidagicha xarakterlanadi.

- Davlat→fuqarolarga (G2C) fuqarolar turli ma’lumotlar, xizmatlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlanadilar.

- Davlat→biznesga (G2B) hukumat va biznes o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro bir qator aloqalarni ta’minlaydi.

- Davlat→davlatga (G2G) davlat ichida yoki davlat idoralari o‘rtasidagi turli axborotlarni almashish va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash.

- Davlat→xodimlarga (G2E) ichki jarayonlarini soddalashtirish va fuqarolik xizmati, davlat va uning xodimlari o‘rtasidagi aloqa boshqaruvini osonlashtirish orqali unumdorligini oshiradi.



2.1-rasm. Elektron hukumat.

Elektron hukumatda hamkorlik ikki turda bo‘lishi mumkin: ichki va tashqi hamkorlik (2.2-rasm). Ichki hamkorlik davlat organlari idoralari o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Tashqi hamkorlik davlat organlari bilan fuqarolar, tadbirkorlik sub’ektlari va notijorat

tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi<sup>2</sup>.

### ***Government-to-Government (G2G) modeli***

“Elektron hukumat” tizimi, xususan, uning G2G modeli to‘g‘risida so‘z yuritganda, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlarining boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish, bu organlarni aholi va biznes sub’ektlari bilan o‘zaro munosabat funksiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi kompyuter tizimlarini yaratish tushuniladi. Agar idoralarda ushbu jarayonlar avtomatlashtirilmagan bo‘lsa yoki elektron hujjat aylanishi mavjud bo‘lmasa, davlatning ichki tranzaksiyalari amalga oshirilgan va qog‘ozsiz ish yuritish rejimi joriy etilgan deb bo‘lmaydi. Bu borada faqat alohida joriy qilingan amaliyotlar, masalan, elektron pochta orqali ma’lumot jo‘natib, qog‘ozga chop etib, mansabдор shaxsga qo‘l qo‘ydirish jarayoni elektron hukumat tizimidan yiroqdir.

Axborot texnologiyalarini joriy etish va axborot resurslarini shakllantirishdan tashqari elektron hukumat normativ-huquqiy baza qabul qilishni ham talab etadi. Ya’ni, hujjat elektron ko‘rinishining qog‘ozdagи ko‘rinishi bilan huquqiy jihatdan teng kuchga ega ekanligi va u bilan asosiy bosh hujjat ko‘rinishida ish yuritish mumkinligiga asos bo‘la oladigan normativ-huquqiy hujjatlar zarur bo‘ladi. Bularga “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunlarni misol qilish mumkin.

Munosabat va aloqalarning ushbu modul yordamida hal etiladigan asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat boshqaruv organlari va davlat muassasalarining axborot massivlari, banklari va ma’lumot bazalarini yagona tizimga integratsiyalash;
- barcha davlat tuzilmalarini elektron hujjat aylanishiga o‘tkazish va uni optimallashtirish;
- davlat qarorlarini ishlab chiqishni, uzatish va ijrosini nazorat qilishni optimallashtirish;
- hukumat resurslaridan foydalanish tezligini oshirish maqsadida yagona davlat portalini yaratish;
- davlat xizmatchilari o‘rtasida raqobat muhitini kuchaytirish va ularning malakasini oshirish.

### ***Government to Business (G2B) modeli***

Iqtisodiyot sohasidagi davlat boshqaruvining amaldagi tizimini davlat va biznes tuzilmalarining umumiyligi ishi yo‘lida – tadbirkorlik sub’ektlaridan har birining, binobarin, mamlakatning ravnaq topishi uchun ularning tadrijiy o‘zaro hamkorligining samarali mexanizmiga aylantirishdan iboratdir.

Munosabatlarning ushbu modulida kuyidagilar asosiy sub’ekt hisoblanadi: budget va soliqlarni tartibga solish, davlat organlari va tijorat tuzilmalarining o‘zaro iqtisodiy hamkorligi, kreditlar, investitsiyalar va boshqa moliyaviy resurslarni boshqarish, tijorat faoliyatini litsenziyalash va boshqalar.

G2V moduli quyidagilarni ta’minalashi lozim:

- biznes tuzilmalari oldida turgan qog‘ozbozlik va ma’muriy to‘sqliarni bartaraf etish;
- davlat boshqaruvining ortiqcha bo‘g‘inlarini qisqartirish, tartibga solish va hujjatlar aylanishining raqamli texnologiyalarini keng joriy etish yo‘li bilan biznes jarayonlarini va tranzaksiyalarni tezlashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish;
- qonunlar va bozor talablaridan kelib chiqib, resurslarni maqsadga yo‘naltirib, erkin

<sup>2</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page 43-44

boshqarish.

Ushbu modul vazifalarini hal etish uchun biznes sub'ektlariga quyidagi xizmatlarni ko'rsatishni nazarda tutadi:

- kompaniyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish;
- vakolatli tashkilotlardan loyiha hujjatlariga ruxsatnomalar olish va ular bilan kelishish (ekologiya, qurilish, tabiiy resurslardan foydalanish);
- litsenziyalar olish va ular muddatini uzaytirish;
- yuridik maslahatlar, qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida o'z vaqtida va to'liq axborot olish;
- budgetga (daromad, foyda, qo'shilgan qiymat, yo'l, yer soliqlari va boshqalar) va budgetdan tashqari fondlarga majburiy korporativ to'lovlarini amalga oshirish;
- buxgalteriya, moliya, soliq va statistika hisobotlarini rasmiylashtirish va boshqalar.

G2B xizmatlari turli ijtimoiy guruh vakillariga yo'naltirilgan bo'lib, bu xizmatlarning asosiy maqsadi davlat bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarishdan iborat.

### ***Government to Citizens (G2C) moduli***

Davlat boshqaruvining axborot-kommunikatsiya tizimlari bugungi kunda ko'plab mamlakatlar aholisi kundalik hayotiga tobora kengroq joriy etilmoqda. Davlat tomonidan xizmat ko'rsatishda bu xizmat qaysi muassasa tomonidan va qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, eng asosiysi fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lishlariga barham berishdan iborat. Bu xizmatlarga quyidagilarni nazarda tutmoq joiz:

- soliq deklaratsiyalarini taqdim etish va shaxsiy to'lovlar: daromad solig'i, mol-mulk solig'i va h.k.larni amalga oshirish;
- ijtimoiy ta'minot xizmatlaridan foydalanish, grantlar va qarzlar olish;
- shaxsiy hujjatlar – pasport, haydovchilik guvohnomasi va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish;
- fuqarolarni doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish, manzil o'zgarganligi to'g'risida bildirishnomasi berish;
- shikoyat va arizalarni qabul qilish, yuridik maslahat berish xizmatlari;
- ish izlash va mutaxassislarning kasb darajasini elektron test sinovidan o'tkazish bo'yicha mehnat birjalari xizmatlari;
- sog'liqni saqlash tizimi xizmatlari (interaktiv maslahatlar, qabulga yozish va boshqalar);
- oliy o'quv yurtlariga kirish test sinovlari, masofadan turib o'qitish usuli bilan davlat ta'lim muassasalarida malaka oshirish va boshqalar;
- daromadlar, dividendlar to'g'risida axborot va maslahatlar olish;
- kreditlar, imtiyozlar va litsenziyalarni onlayn tizimida rasmiylashtirish;
- turli badallar, kommunal xizmatlar haqini to'lash va shularga o'xshash boshqa xizmatlar.

Elektron hukumatning fuqarolar uchun yo'naltirilganligini bir muhim jihatni hukumat saytlarida fuqarolarning murojaatlari axborot yoki xizmatlari foydalanishini oson bo'lishi uchun va nima qidirsangiz topish uchun qulayliklar yaratilmoqda. Shu munosabat bilan, fuqarolar ko'p davlat organlari portallariga kirishni oson va muammosiz muloqot qilish imkonini ta'minlash maqsadida yagona nuqta orqali kirish imkonini yaratiladi. Yagonda hukumat portalı axborot va xizmatlar portallari, idoralararo ma'lumotlar almashinuvini yengillashtiruvchi foydali xizmat kanali hisoblanadi. Bundan tashqari, yagona hukumat portalı fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi juda muhim aloqa vositasidir.

Fuqarolar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan va ko'rsatilayotgan xizmatlar

ko‘rinishi jihatidan elektron hukumat tizimi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha mantiqan ikki qismga ajratilishi mumkin: ofis-oldi va ofis-orqasi. Elektron hukumat tizimi turli xizmatlarni ko‘rsatishning ofis-oldi ko‘rinishida xizmatlarni yetkazib berish, axborot va xizmatlarini yetkazib beruvchilarni ko‘rishi, davlat bilan fuqaro va biznes o‘zaro munosabatlarini ko‘rish va boshqarishni anglatadi. G2B hukumat va biznes o‘rtasida turli operatsiyalarni o‘z ichiga oladi, G2C esa, fuqarolarga axborot tarqatishni va davlat xizmatlarni yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. AKT asosida faollashtirilgan G2C xizmatlar hukumat tomonidan axborot almashish tizimi va fuqarolar uchun bir-oyna onlayn portali orqali axborot va boshqa xizmatlardan foydalanish uchun imkoniyat yaratuvchi ilovalar orqali yetkazib beradi. Bunday portal fuqarolar uchun quyidagi xizmatlarni taqdim etishi mumkin<sup>3</sup>:

- Turli ruxsatnomalar/litsenziyalar va sertifikatlar berish;
- Qonun/ma’muriy ogohlantirishlar va tegishli qonunlar haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlash;
- To‘lov xizmatlari, soliqlarni qaytarish va ijtimoiy kommunal to‘lovlari;
- Elektron maslahat, elektron muxokama, elektron saylov orqali davlat ishlarida ishtirok etish imkoniyatlarini berish.

Fuqaroga yo‘naltirilgan portalni va jamoat ma’lumotlarini almashish tizimini, jamoatni boshqarish, yashovchilarni xisobga olish, ko‘chmas mulk xisobi, avtomashinalarni ro‘yxatga olish, soliq va sug‘urtalar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan asosiy ma’lumotlar bazasini yaratish va ularni bir-biriga bog‘lash ishlarini amalga oshirish.

Elektron G2B xizmatlar korporativ fuqarolik ma’muriy ishlar, sanoat axborot ta’minlanishi va turli soliq va davlat to‘lovlari uchun xaridlar, taklif va mukofotlar, to‘lov xizmatlar, elektron operatsiya xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Boshqa xizmatlardan farqli, quyidagi AKT ilovalar samarali elektron G2B xizmatini yetkazib berish uchun talab etiladi:

- Integratsiyalashgan elektron xaridlar tizimida ro‘yxatga olish, tender, shartnoma va barcha xaridlari bilan bog‘liq jarayonlar, yagona-oyna davlat xaridlari tizimi orqali amalga oshiriladi.
- Elektron bojxona tizimi - import va eksport jarayonlaridagi bojxona boshqaruvini qog‘ozsiz amalga oshirish hamda bojxona tomonidan noqonuniy xizmatlarni ko‘rsatishga qarshi vosita deb belgilab beradigan tizim.

- Elektron savdo tizimi tovarlar va xizmatlar savdosini qo‘llab-quvvatlovchi onlayn tizim.

Ofis-orti xizmatlari. Asosan xukumat asosiy jarayonlarini, jamoatchilik uchun ko‘rinmasligi va bir davlatning ichki jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Davlatlarda elektron hukumatni amalga oshirish bir necha ofis-orti tizimlari islohotlari bilan hamohang ravishda olib borilishi lozim. Elektron hukumatda bunday islohotlar elektron hukumat tizimi muvaffaqiyatlil bo‘lishi uchun zarur omillar xisoblanadi.

Elektron G2G ichki xizmatlarni yetkazib berish jarayonlarini soddalashtirish va samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Mos ravishda AKTdan foydalanish orqali davlat ish jarayonlari quyidagi natijalarga ega bo‘lishi kutiladi:

- Markaziy va maxalliy davlat tashkilotlari xisobot tizimlarining bog‘langanligi tizimning to‘g‘ri va aniq ravishda so‘rovlarni qabul qilishiga olib keladi;
- Ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarning alamashishi xizmat ko‘rsatuvchi tizim

---

<sup>3</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-19-20

samaradorligini oshishiga sababchi bo‘ladi;

- Davlat organlari orasidagi g‘oya va resurslarni o‘zaro ishlatalish;
- Onlayn hamkorlik tizimi orqali qaror qabul qilishda hamkorlik qilish<sup>4</sup>.

Davlat idoralarda hujjat aylanishini elektronlashtirish va hukumatning qog‘ozsiz amaliyotlar tomon harakati G2Gning asosiy tashabbusi xisoblanadi. Elektron xujjat almashinuvini kiritish ma’lumortlarni tezroq, ko‘proq, samarali, xavfsiz va ishonchli boshqaruvi asosida amallarni bajarishga olib kelishi kutilmoqda. Quyida Koreya Respublikasida G2G xizmatlariga misol keltirish mumkin.

*Integratsiyalashgan milliy moliya axborot tizimi:* Turli davlat idoralarda real vaqtida boshqariluvchi moliya soxasiga tegishli bo‘lgan tizimlar bir-biriga o‘zaro bog‘lash orqali tashkil qilingan. Ta’kidlash joizki avval ushbu tizimlar alohida bo‘lgan.

*Mahalliy elektron hukumat axborot tizimi:* 21 ta ma’muriy ishlarni standartlashtirish va axborotlashtirish orqali 244 ta mahalliy hukumat boshqaruvi tizimiga xizmatlar kiritilgan: istiqomat qiluvchini ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘chmas mulk, moliya va soliq solish mamlakat va tumanlar darajasida tashkil etildi.

*Ta’lim axborot tizimi va elektron o‘rganish:* Maktablar, ta’lim viloyat ofislari va ularning tuman idoralari, Ta’lim vazirligi va inson resurslarini rivojlantirish muassasalari o‘rtasida umummilliy axborot tarmog‘i.

*Hukumat elektron xujjat almashinuvi:* elektron qayta ishslash, barcha davlat hujjatlarini tayyorlash, tasdiqlash, saqlash va tarqatish.

G2G tizimlar quyidagilarni talab qiladi:

- ish jarayonlarini elektron ko‘rinishda bajarilishini tashkil etish;
- Elektron hujjatlarni qayta ishslash;
- Bilimlarni boshqarish tizimlari;
- Bek-ofislarning integratsiyasi.

Elektron hukumatning muvaffaqiyat omillari beshta asosiy guruhlarga bo‘linadi:

*Kelajakni ko‘rish qobiliyati, strategiya va aniq maqsadlar*

Elektron hukumatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida aniq maqsad va AKT strategiyasiga asoslanib reja tuziladi. Elektron hukumatni yaratishda amalga oshirish bosqich ko‘nikmalarini bilish kerak bo‘ladi.

Elektron hukumat strategiyasidagi muhim g‘oya bu “yaxlit hokimiyat” yondashuvidir. Bu yondashuv fuqarolarning va tadbirkorlarning ehtiyojidan kelib chiqib tashkil qilinadi. Yaxlit hokimiyat yondashuvi fuqaro va tadbirkorlar bilan ishslashda infratuzilmaga ortiqcha sarf qilinadigan keraksiz investitsiyalarni oldini oladi<sup>5</sup>.

Qisqacha aytganda, muvaffaqiyatli elektron hukumat quyidagilarni talab qiladi:

- Yetakchilarning kelajakni aniq ko‘rishi;
- Fuqarolar tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlash;
- Resurslarga asoslangan holda tuzilgan yaxshi strategiya;

*Qonun va yo‘riqnomalar*

Hukumat loyihalarini yaratishda qonunchilik yoki tartibga soluvchi me’yori-xuquqiy asoslar talab qilinadi, chunki bir qancha yil oldin yaratilgan qonunlar yangi elektron xizmatlarni tadbiq qilishda to‘g‘ri kelmaydi. Elektron hujjatlar va tranzaksiyalarni rasmiy tan olish uchun qonunlarni yangilash yoki yangi qonunlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>4</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-21

<sup>5</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-24

Qonun va yo‘riqnomalarni tashkil qilishda aniq maqsadlar zarurdir, chunki aniq rejalar elektron hukumatni qo‘llab quvvatlashda muhim ahamiyatga egadir. Yangi loyihalar uchun yangi qonuniy o‘zgartirish kiritishning rejasini tuzish xam ko‘p vaqtini talab qiladi. Shuning uchun elektron hukumat muvaffaqiyatga erishishida quyidagi qonunlar qabul qilinishi kerak:

- Elektron hukumat to‘g‘risidagi qonun;
- Mahfiylik va unga doir muammolar to‘g‘risidagi qonun;
- Axborot xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun;
- Axborot tizimlari va bizness jarayonlardagi o‘zgarishlarga doir qonun;
- Hukumat AKT infrastrukturasi va integratsiyalashgan ma’lumotlar markaziga asos solish to‘g‘risidagi qonun;

#### *Tashkilotlararo kelishuv*

Tashkilotlararo kelishuv strukturasi ma’lum yo‘nalishdagi tashkilotlarga yo‘l ko‘rsatuvchi mexanizmdir. Bu kelishuv juda ham muhimdir chunki hukumat bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu kelishuv hamkorlik va tezkor amalga oshirishni ta’minlashni talab etadi.

Tashkil etuvchilik xarakteriga ega bo‘lgan kelishuvni rejalashtirish uchun quyidagilar muhimdir:

- Majburiyatga asoslanib mustahkam hamkorlikni ximoya qilish;
- Axborot texnologiyalar boshqaruvini rejalashtirish va menejmentini o‘zgartirish;
- Budgetni shakllantirish va uni amalga oshirish;
- Muvofiqlik va hamkorlik;
- Monitoring va ishning sifatini baholash;
- Texnologiyani yetkazib beruvchi tashkilotni boshqarish;
- Hukumat xususiy sektori va fuqarolar hamkorligi.

#### *BPR - Biznes jarayonlarni maqbullashtirish<sup>6</sup>*

Elektron hukumatning asosiy vazifasi hukumatni yangidan tuzish hisoblanadi. Haqiqatan ham, muvaffaqiyatli elektron hukumat biznes jarayonlarga asoslanadi. Biznes jarayonidagi innovatsiya bu BPR (Business Process Reengineering)dir. BPR bu - ishni olib borish jarayoni oqimi yoki pog‘onalararo oqimini qayta ishlab chiqish bilan jarayonning samaradorligini oshirish tushuniladi (rasm 2.3).

---

<sup>6</sup>e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-25



Rasm 2.2. Reinjiring-Biznes jarayonlari maqbullashtirilishi metodikasi

Davlat xizmatlarini yagona portal orqali interaktiv shaklga o'tkazish barobarida xizmat ko'rsatish jarayonlarini maqbullashtirish ustuvor va birlamchi vazifa hisoblanadi.

Davlat va xo'jalik xizmatlarini ko'rsatishda inson omili aralashuvini, byurokratik to'siqlarni keskin kamaytirish, me'yoriy xujjalardagi nomutanossibliklarni bartaraf etish tushuniladi.

Xizmat ko'rsatish muddatlarini qisqartirish, narxlarini arzonlashtirish va tartibotlarini soddalashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish sanaladi.

## 2.2. Elektron hukumatni amalga oshirishning xavf omillari.

### *Elektron hukumatni tadbiq qilishda havf omillari<sup>7</sup>*

Ko'pgina mamlakatlarda elektron hukumatni joriy etishda kutilgan natijalarga erishilmagan. Elektron hukumatni joriy etishdagi havflar fuqarolar va hukumat tomonidagi havflarga bo'linishi mumkin.

Umuman olganda fuqarolar tomonidagi havlarga quyidagilar kiradi:

- Raqamlı tengsizlik
- Bilimlar yetishmasligi
- Foydalanishda qulay emasligi
- Rag'batlantirishlarning yetishmasligi
- Ishonchning yetishmasligi
- Tushunmovchilik

Hukumat tomonidagi havflarga quyidagilar kiradi:

- Murakkablik
- Vazirlik tizimlarining to'liq integratsiya bo'limganligi
- Qobiliyat yetishmovchiligi
- Inson resurslarining cheklanganligi
- Moliyaviy resurslarning cheklanganligi

<sup>7</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-26-27

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'yicha 35 foiz elektron hukumat loyihalari muvaffaqiyatsizlikka uchragan, 50 foizi qisman va faqatgina 15 foizi esa to'liq muvaffaqiyatga erishgan. Rivojlanayotgan davlatlarda elektron hukumatni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka olib boruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Davlat organlari bilan hamkorlikning yetishmasligi
- Sharoitga mos bo'limgan rejalar va strategiyalar
- Malakali mutaxassislarining yetishmasligi
- Investitsiya rejasining yo'qligi
- Yangi texnologiyalar yetishmasligi
- Tayyorgarliksiz tezkorlik bilan amalga oshirish.

Elektron hukumatni to'liq ishga tushirish juda murakkab jarayon, chunki yangi axborot tizimlarining tadbiq qilinishi aholi uchun yangilik hisoblanadi.

Hukumat o'zining imkoniyat va tayyorgarliklaridan kelib chiqib elektron hukumatni amalga oshirish rejasini tuzib chiqadi. Osiyo davlatlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv apparatlari turli xil bo'lishiga qarab xarakterlanadi va har bir mamlakatning o'z vaziyatidan kelib chiqib turli xil yondashuvlar qabul qilinishi talab etiladi.

### ***Elektron hukumatni amalga oshirish***

Yuqorida ta'kidlanganidek, elektron hukumatni amalga oshirish davomiy jarayondir. Elektron hukumatni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Elektron hukumat bir nechta ketma-ket bo'limgan bosqichlar to'plami hisoblanib, oshib borayotgan imkoniyatlar darajasi, bilimlar va infratuzilmaga asoslangan. Ommaga ma'lum modellar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jaxon Banki tomonidan ishlab chiqilgan. Ular elektron hukumatni tadrijiy jarayon sifatida ko'rishadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tadqiqotiga ko'ra elektron hukumat o'sishini aniqlashda beshta bosqich mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron hukumatni amalga oshirish bosqichlari hukumatning tayyorgarlik darajasi bo'lib, asosan aniq maqsad va rasmiy veb-saytlar orqali ta'minlanadigan onlayn xizmatlarga asoslanadi<sup>8</sup>.

1. Paydo bo'lish: Internetda bir nechta mustaqil bo'lgan rasmiy veb-saytlar tashkil etiladi. Axborotlarning cheklanganligi va asosan statik saytlardir.

2. Kengaytirilgan: Davlat organlari veb-saytlarida ma'lumotlar xajmining oshishi, axborotlar ko'proq dinamik holatda o'zgaradi.

3. Interaktiv: Foydalanuvchilar shakllarni yuklab olishi, interaktiv xizmatlardan foydalanishi mumkin.

4. Tranzaksiyalashgan: Foydalanuvchilar xizmatlar uchun onlayn tarzda to'lov va moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. Yagona: Davlat organlari axborot tizimlarining to'liq integratsiyasi.

Jaxon Banki elektron hukumatni amalga oshirish jarayonini uchta bosqichga bo'ladi. Bu bosqichlar bir-biriga mutlaqo bog'liq emas, ya'ni, bir bosqich tugallanmasdan ikkinchi bosqichni boshlash mumkin.

1. Nashr etish: Iloji boricha ko'proq ommaga hukumat haqida axborotni va tarqatish. Davlat portallari elektron hukumatning asosiy xizmatchisi vazifasini o'taydi.

2. Interaktiv: Interaktiv elektron hukumat ikki tomonlama aloqani o'z ichiga oladi, misol qilib hukumat ishchilari uchun e-mail kontakt kabi boshlang'ich funksiyalarni yoki siyosiy va qonuniy takliflarga doir foydalanuvchilarning fikr bildirishi uchun sharoit yaratib berish hisoblanadi.

3. Tranzaksiya: fuqarolar hukumat interaktiv xizmatlaridan foydalanishi hamda

<sup>8</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-29

onlayn to‘lovlар va elektron hisobtlarni jo‘natishi mumkin<sup>9</sup>.

### **Nazorat savollari:**

1. Government-to-Government (G2G) - davlat boshqaruv organlarining o‘zaro munosabatlarini tushintirib bering.
2. Government to Business (G2B) - davlat boshqaruv organlari bilan tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tushintirib bering.
3. Government to Citizens (G2C) - davlat boshqaruv organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tushintirib bering.
4. Government-to-Non-profit (G2N) - davlat boshqaruv organlari bilan notijorat tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tushintirib bering.
5. Government-to-Employee (G2E) - davlat boshqaruv organlari bilan uning xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tushintirib bering.
6. Integratsiyalashgan milliy moliya axborot tizimiga misollar keltiring.
7. Mahalliy elektron hukumat axborot tizimiga misollar keltiring.
8. Hukumat elektron xujjat almashinuvi tizimiga misollar keltiring.

### **Adabiyotlar va internet saytlar:**

1. Yakubov M.S., Usmonov J.T. Stanovlenie i perspektivы razvitiya elektronnogo pravitelstva v respublike Uzbekistan. VESTNIK TashGTU № 2. 2013g. 186-190s.
2. Zaynidinov X.N., Yakubov M.S., Qoraboev J. Elektron hukumat //O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi. –T.: Akademiya, 2013.- 175 b.
3. <https://mitc.uz/ru/pages/egovernment/2074>

### **3-ma’ruza. Elektron hukumat tizimini joriy etish: tarixi, bosqichlari va tajribasi (2 soat).**

#### **Reja:**

- 3.1. Elektron hukumat tarixidan.
- 3.2. Elektron hukumatni joriy etish bosqichlari.
- 3.3. Elektron hukumat joriy etishning Janubiy Koreya tajribasi.

**Tayanch iboralar:** *Elektron hukumat, E-Government, Elektron hukumatni joriy etishning bosqichlari.*

#### **3.1. Elektron hukumat tarixidan.**

---

<sup>9</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-29

Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish g‘oyasi yangi davlat menejmenti g‘oyasi asosida olib borilayotgan ma’muriy faoliyatda reforma o’tkazish jarayonida 1990 yillarda yuzaga keldi. Lekin “elektron hukumat” iborasi keyinroq (e-government), 1997 yili AQSh milliy ilmiy fondi tashabbusi bilan yuzaga keldi. Bu yerda asosiy urg‘u davlatning ommaviy boshqaruvi organi tizimiga berilgan. Yangi davlat menejmenti asosida elektron hukumat dasturini amalga oshirish jarayonida ma’muriy o‘zgarishlar g‘oyasi tor ma’noda bo‘lib qoldi, ommaviy boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq o‘z ichiga olmadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida yangi tendensiyalar globallashuv, tarmoq tuzilishi, kommunikatsiya inqilobi, bilimlar jamiyatni yuzaga keldi. Yangi texnik vositalarni boshqaruvi jarayonlariga tadbiq etish 1940 yillarning oxiri va 1950 yillar boshlariga to‘g‘ri keldi. 1951 yili tijoratda foydalanish uchun birinchi kompyuter yaratilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu “First Ferranti MARKI” va UNIVACI hisoblanadi. Bunday kompyuterlar aholini ro‘yxatga olishda ishlatilgan. 1950 yillarning birinchi yarmidan kompyuterlardan ilmiy va texnik sohada, qisman tijorat va ommaviy boshqaruvda foydalanilgan. 1965 yillarga kelib Kongress siyosati va Prezident ma’muriyatida ma’lumotlarni qayta ishslashda kompyuterlardan foydalana boshlandi. Asosiy e’tibor elektron kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib, menejment faoliyati sarf-xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. 1966 yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘scha yillari AQShda 2600 kompyuter mavjud bo‘lib, ularda 71 ming mutaxassis faoliyat yuritgan. Kompyuterning yaratilishi boshqa texnologiyalar imkoniyatlariga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladidi. Kompyuterning asosiy imkoniyatlari jumlasiga: inson va sun’iy yo‘ldoshlarning koinotga uchishi, tibbiyot olami tadqiqotlaridagi yutuqlar, soliq tizimini boshqarish orqali davlat jamg‘armalarini oshirish, ijtimoiy xavfsizlikni boshqarish, mudofaa sohasida logistik tizimni boshqarish, sug‘urta to‘lovlarini tezlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish, kam xarajatli yo‘llarni loyihalash va infrastrukturani yaratish kiradi. Qonunchilikka asosan kompyuterlardan davlat faoliyatida foydalanish uch tashkilot tomonidan amalga oshirila boshlandi: Bosh ma’muriy xizmat, savdo vazirligi va Budget byurosi. 1970-80 yillarga kelib ma’lumotlarni uzatish va qayta ishslash texnologiyasi asosida kommunikatsion tarmoqlar yuzaga kela boshladidi. Shaxsiy kompyuterlarning va ularga mos ravishda dasturiy vositalarning yaratilishi butunjahon axborot tarmog‘i va Internet yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ikki yo‘nalish – AKTning rivojlanishi va ommaviy boshqaruvi modeli 1990 yillarda ma’muriy islohotlar o’tkazilishini taqozo etdi. Natijada AQShda «hukumatni yangilash» (Reinventing government) dasturi ishlab chiqildi. Buyuk Britaniyada 1994-96 yillarda elektron hukumatni joriy etish strategiyasi ishlab chiqildi. 1997 yilga kelib, Britaniyada konservativ hukumat tomonidan elektron hukumat xizmatlarini joriy etish bo‘yicha bir qator loyihamlar ishlab chiqildi. Hukumatning 1999 yilga kelib leyboristlar qo‘liga o‘tishi bilan hukumatni modernizatsiyalash dasturiga bir qator yangi g‘oyalar kiritilib, 2000 yil uni joriy etish dasturi - «Elektron hukumat»: axborot asosida ommaviy xizmat uchun strategik asos qabul qilindi. 1990 yillarga kelib, boshqa davlatlar ham hukumatni elektronlashtirish dasturini qabul qila boshladidi. 1999 yil Yevropa komissiyasi «Elektron Yevropa yaratish initsiativasi (tashabbusi)» dasturini ishlab chiqdi.

“Elektron hukumat” quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

- davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish sohasida standartlar va takliflarni shakllantirish:

- hukumat axborot tizimi integratsiyasi va AKT asosida tashkilotlararo axborot almashinuvi samaradorligini ta'minlash;
- AKT yordamida aholi va davlat boshqaruv organlari orasidagi o'zaro bog'lanish samaradorligini ta'minlash;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatida axborot boshqaruv tizimini joriy etish;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatini ta'minlash uchun namunaviy dasturiy-texnik yechimlarni topish;
- chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish.

Shunday qilib, yangi asrda "elektron hukumat" tizimining yaratilishi muhim voqeа bo'lib, barcha davlatlarni qamrab olgan. Elektron hukumatning nazariy jihatlari uning amaliy tadbiqi bilan birga, har bir mamlakatning milliy va o'ziga xos hususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanib borishida namoyon bo'lmoqda.

Axborot, dasturiy va elektron texnik vositalarning rivojlanishi davlat boshqaruv jarayonlari hamda tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvaliga bu qarorlar qabul qilish jarayonida ma'lumotlardan foydalanish, yig'ish va qayta ishslash samaradorligini oshirishda, keyinchalik barcha davlat boshqaruv tizimlarini tashkil etish usullari va institutlari transformatsiyasida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, elektron hukumat rivojlanishi elektron biznes va elektron tijoratning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Davlat elektron vositalariga asoslanib, aholi va tijorat tashkilotlariga xizmat ko'rsatib keladi, hukumat tuzilmalari orasidagi o'zaro bog'lanishni takomillashtiradi. Bunda davlat faoliyatida umumiy maqsadga erishiladi:

- davlat va tashkilotlar o'rtasida hamkorlik shakllari kengayadi hamda mustahkamlanadi;
- tashkilot va fuqarolarning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi;
- faoliyatning sharoitlari o'zgarishlariga tez va samarali moslashadi;
- aholi va tijorat tuzilmalariga xizmat ko'rsatish takomillashadi, xizmat ko'rsatish turlari oshib, narxi pasayadi;
- davlat boshqaruvida tashkilotlararo munosabatlarda samaradorlik oshadi;
- davlat boshqaruvida kadrlar samaradorligi oshadi;
- davlat boshqaruvida shaffoflik darajasi va davlat xizmatchilari mas'uliyati oshadi, xizmatchilar tashabbuslari rag'batlantiriladi.

### **3.2. Elektron hukumatni joriy etish bosqichlari.**

AKTni davlat boshqaruvida joriy etish bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – veb portallarning yaratilishi hukumatni elektron tarmoq tuzilmasiga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda hukumat bir yoki bir necha saytg'a ega bo'lib, axborot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Sayt orqali aholiga hukumat tarkibi, uning vazirlari, agentliklari va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, telefonlar, manzillar, qabul vaqtлari va boshqalar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi. Saytda fuqarolar va tashkilotlar tomonidan berib boriladigan savollarga javoblar ham mutazam ravishda joylashtirib borilishi mumkin.

Ikkinci bosqich – veb portal ishtirokida hukumat saytlari orqali foydalanuvchilarga maxsus va yangi ma'lumotlarni ko'plab taqdim etish mumkin. Bu ma'lumotlar hukumat nashrlari, huquqiy hujjatlar, yangi axborotlardan iborat bo'lishi mumkin. Tarmoqda hukumat agentliklari soni oshib boradi va har biri bilan bog'lanish mumkin bo'ladi. Elektron manzil, qidiruv tizimi, biron bir izoh yoki taklif yuborish imkoniyati yuzaga keladi.

Uchinchi bosqich – interaktiv veb portallar aholiga xizmat ko‘rsatish bilan birga, davlat tuzilmalari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning izchilligini ham oshiradi. Milliy hukumat veb-saytlari foydalanuvchini veb portal ko‘rinishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazirliklar, departament va agentliklar bilan bog‘laydi. Fuqarolar va provayderlar xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish tarmoq foydalanuvchilariga o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. Foydalanuvchi maxsus ma’lumotlarni olishi, turli shakl va blankalarni tarmoq orqali to‘ldirishi, rahbarlar bilan bitimga kelishishi, elektron majlislarda qatnashishlari mumkin. Bu yerda foydalanuvchi uchun sayt xavfsizligi va paroli yuzaga keladi.

To‘rtinchi bosqich –foydalanuvchi uchun axborot oqimi veb portali tarmoq orqali hujjatlarni olish va kelishuvlarga erishishni ta‘minlaydi. Fuqarolar vizalar, pasport, tug‘ilganlik yoki o‘lganlik haqida guvohnoma, litsenziya, ruxsatnoma va boshqa axborot xizmatlaridan foydalanadi. Hukumat veb-sayti portal hisoblanadi, fuqarolarga hukumat tuzilmalari va xizmatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etishni ta‘minlaydi. Bunday portallar hukumat tuzilmasi va vazifasidan ko‘ra, asosan, aholining talab va e’tirozlarini inobatga olishga qaratilgan. Fuqarolar, shuningdek, soliq va kommunal to‘lovlarini tarmoq orqali amalga oshirishlari mumkin. Bu bosqichda elektron raqamli imzodan foydalanish mumkin.

Beshinchi bosqich – to‘liq integrallashgan veb portal hukumat portali tarmog‘i orqali xizmat ko‘rsatish va bog‘lanishni ta‘minlaydi, tarmoq foydalanuvchisiga ixtiyoriy xizmatni o‘z vaqtida olishini ta‘minlaydi.

Mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini yaratish borasida ishlar jadal olib borilmoqda, uning amaliy tadbipi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi, aholining turmush tarzi o‘sadi, xalqning davlat boshqaruvidagi ishtiroki izchilligi oshadi, davlat boshqaruvi organlari xizmatchilarining rahbarlik faoliyatidagi mas’uliyati oshib, mukammal qarorlar qabul qilinishiga erishiladi.

“Elektron hukumat” shakllangan davlat xizmatlari turlari haqidagi ma’lumot va xizmatlarni aholiga, tijorat va davlat organlari shaxobchalariga, tashkilot rahbarlariga yetkazadi, axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masofasini mumkin qadar qisqartiradi.

“Elektron hukumat” davlat boshqaruvida elektron hujjat aylanishi tizimi hisoblanib, mamlakat miqyosida barcha boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirishga asoslangan va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida har bir jamiyat a’zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiya kechikishlarini qisqartirishga qaratilgan. Elektron hukumatning yaratilishi jamiyat boshqaruvining umumdavlat tarmoqlangan hujjatlarni boshqarish va qayta ishslash jarayonlariga bog‘liq bir qator masalalarni yechishga qaratilgan tizimni shakllantirishni taqozo etadi. Elektron hukumat amaldagi hukumatga qo‘sishma bo‘lmay, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida davlat xizmatlari samaradorligini oshirishdan iborat.

Xozirgi kunda “elektron hukumat” “yagona oyna” sifatida bugungi kunga nisbatan yanada dolzarb bo‘lishi muqarrar. Bu jarayon ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Bunday texnologiyalar ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya imkoniyatlari darajasini yanada oshirib, hukumat, tijorat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyaning yangi shakllari yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda “elektron hukumat”ning yagona konsepsiysi yaratilgan, faqat har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyat va sharoitidan kelib chiqqan holda, hukumat fuqarolar va tijorat sohasi xizmatchilarining kerakli ma’lumotlarni olib ishlatishiga bo‘lgan talablari majmuasi yaratilgan. Turli daraja va toifadagi foydalanuvchilarni yagona maqsad birlashtiradi, ularning qisqa vaqtida, kam sarf-xarajatda, eng yaqin yo‘l orqali ma’lumot

olish uchun samarali vositaga ega bo‘lishlari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarning sodda, tezkor va qulay kechishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, “elektron hukumat” yaratishdan ko‘zlangan maqsad:

- aholi va tijoratga hukumat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarni optimallashtirish;

- barcha saylovchilarning davlatni boshqarish va rahbarlik jarayonlaridagi ishtiroki darajasini oshirish;

- fuqarolarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishlari imkoniyatlari darajasini oshirish va quvvatlash;

- fuqarolarning saviyasi va texnologik ta’milanganlik darajasini oshirish;

- o‘zaroaxborot almashinuv jarayonlarida geografik jihatdan joylashish faktorlariga bog‘liq ta’sirlar darajasini kamaytirish;

- davlat boshqaruvida sarf-xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va h.z.

“Elektron hukumat” ma’muriyat boshqaruvi samaradorligi va unga bog‘liq sarf-xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, balki jamiyat va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tubdan o‘zgartiradi. Bu o‘z navbatida demokratik jamiyatning takomillashuvi va davlatning xalq oldidagi mas’uliyatini yanada oshiradi.

“Elektron hukumat”ning joriy etilishi davlat va aholi munosabatlarni muvofiqlashtiradi, hukumatga bo‘lgan xalq noroziligini kamaytiradi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro elektron muloqot va kelishuvlar tufayli siyosiy qarama-qarshiliklar barham topadi. Natijada, yangicha barcha jamiyat institutlari va tuzilmalarini: davlat xizmatchilari, tijoratni, tashabbuskor fuqarolarni, ta’lim tizimi va tadqiqotchilik institutlari, jamoa guruhlari va fuqarolik jamiyatini bog‘lovchi Internetga asoslangan davlat boshqaruvi tuzilmasi shakllanadi.

Odatda, “elektron hukumat”ni joriy etish jarayoni uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda AKT vositasi davlat organlari axborotlariga tashkilot, korxona va fuqarolarning murojaatini tezlashtiradi, aniq manzilini belgilaydi. Bu bosqichni amalga oshirish uchun davlat organlari o‘zlarining veb-saytlarini yaratadilar, ularga qonunchilik va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, ularning kerakli shakllari, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar kiritiladi. Bu bosqichning asosiy elementi - ma'lumotlarning tez yangilanishi, barcha davlat axborot resurslarini jamlovchi va “yagona oyna orqali” murojaatni ta’minlovchi davlat veb-portalining mavjudligi.

Ikkinci bosqichda davlat xizmatlari (ko‘chmas mulk va yer maydonlarini ro‘yxatga olish, soliq dekloratsiyalarini to‘ldirish, ruxsatnoma olish uchun arizalar berish) online rejimida taqdim etiladi. Bu bosqichga o‘tish byurokratik to‘sqliarga barham beradi, murakkab jarayonlar kamayadi, bevosita tashkilot rahbarlari bilan muloqot keskin kamayadi. Bu bosqichning amalda joriy etilishi hukumat organlariga elektron shaklda (e-services) “yagona oyna” orqali haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko‘rsatadi.

Uchinchi bosqichda davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida hukumat siyosati ishlab chiqishning jarayonlarida fuqarolar va firmalarning siyosatchilar va rahbarlar bilan interaktiv munosabatlari orqali ishtiroki ta’minlanadi. Bu ishlar asosan veb-forumlar orqali amalga oshirilib, qonunchilik dalolatnomalari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari, taklif va tavsiyalar jamlanaib, muhokama etiladi.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi hukumatdan vaqt kategoriylariga nisbatan juda e’tiborli bo‘lishni taqozo etadi. Ma’muriy organlar tomonidan keljakni o‘ylab qabul qilingan qarorlar texnologiyaning rivojlanishi bilan tezda o‘zgarmoqda. “Elektron

hukumat”ni joriy etishda yo‘l qo‘yilgan xatolar moliyaviy jihatdan qimmatga tushadi, ayniqsa, fuqarolar va tijorat sohasi xodimlarining ishonchini yo‘qotishdan ehtiyotkor bo‘lishni talab etadi. Mamlakatning elektron hukumatga o‘tishi hukumatning yangi sharoitga moslashish qobiliyati qay darajada shakllanganligini namoyish etish imkonini beradi. Raqobatli, jahonda yuz berayotgan izchil o‘zgarishlar davrida elektron hukumatni joriy etish borasida olib borilayotgan islohotlardagi kechikish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida qimmatga tushadi.

Elektron xizmatning keng joriy etilishi uchun uni qog‘ozdagи jarayonlar kabi tan olinishi va quvvatlanishi lozim. Shuningdek, online rejimida xizmat ko‘rsatishni muvaffaqiyatli rivojlanishi axborotlarning daxlsizligi va xavfsizligini ta‘minlashga bevosita bog‘liq.

Elektron texnologiyaning shakllanishi hukumat faoliyatida boshqaruв xarakteri o‘zgarishini taqozo etadi. Axborot jamiyatida amaldagidan farqli o‘larоq hukumat boshqaruв organlari vakolatlaridan kelib chiqqan holda yangi tuzilma va boshqaruв tamoyillariga o‘tiladi. Odatdagи hukumat bilan yangi elektron hukumat boshqaruв mezonlari orasidagi farqni keltirib o‘tamiz. Amaldagi qaror qabul qilish jarayonlari nazoratda va buyruqni bajarishga asoslangan bo‘lsa, yangi usulda asosiy parametr sifatida rozilik va kelishuv ishlataladi. Amaldagi boshqaruвda asosiy e’tibor huquq va vaqtga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviyda majburlanmagan meyorlarga, jamoaning taklif va tavsiyalariga, kelishuvlarga asoslangan. Amaldagi davlat hukumat va parlament, tarmoqli jamiyatda yangi boshqaruв ommaviy davlat shaklini: komissiya, forum, demokratik tashkiliy guruhlarni o‘z ichiga oladi. Avval axborot boshqaruв uchun markazlashgan va maxfiy bo‘lsa, endi axborot tarqalgan, ochiq tarmoqli bo‘lib, tarmoqli forum, ta’lim va boshqalarni o‘z ichiga oladi, axborot jarayonlari esa interfeys va protokollar bilan bog‘langan.

Odatda “elektron hukumat”ning uchta asosiy elementi ajratiladi:

1. Elektron vositalar yordamida ommaviy fikrini (fuqarolar tarmog‘i, ovoz berish va boshqalar) shakllantirish va qarorlar qabul qilishga asoslangan elektron demokratiya hamda ishtirok (e-democracy and participation);
2. Elektron vositalar yordamida o‘zaro ommaviy, xususiy va ommaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik shakli elektron foydalanish tarmog‘i (electronic production network) hisoblanadi;
3. Foydalanuvchilarga, xususiy shaxs yoki jamoaga mahalliy, hududiy yoki milliy portal orqali xizmatni taqdim etishga asoslangan ommaviy elektron xizmat (electronic public services).

Ushbu elementlar u yoki bu ma’noda siyosiy tizimga aloqasi bor. Shuning uchun ham “elektron hukumat” siyosiy ma’muriy tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish imkoniyatini beradi.

“Elektron hukumat”ni ikki ma’noda talqin qilish mumkin: Birinchisi – yangi axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruв faoliyatini takomillashtirish ma’nosini anglatib, oxir-oqibatda aholiga samarali xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi. Ikkinchisi – faqat tashkilotlararo munosabatlar xarakterini yangilabgina qolmay, balki, davlat boshqaruvining jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini to‘liq yo‘lga qo‘yadi.


Shunday qilib, “hukumat elektron” vositalar yordamida aholiga, biznes-tashkilotlarga samarali xizmat ko‘rsatadi, hukumat tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarni ham takomillashtiradi. Bunda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- hukumat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik shakllarini kengaytirish va mustahkamlash;

- fuqarolar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish;
- ish va boshqaruv faoliyati sharoitining o‘zgarishiga muvofiq ravishda tez va samarali moslashish;
- aholi va biznes-tuzilmalarga interaktiv xizmat turlarini kengaytirish va optimallashtirish, xizmat to‘lovlarini miqdorini muntazam kamaytirib borish;
- davlat boshqaruvida tashkilotlararo o‘zaro munosabatlar samaradorligini oshirish;
- davlat boshqaruv tizimida yetuk mutaxassislar salohiyati va saviyasini oshirish;
- aholiga va biznes-tuzilmalarga xizmat ko‘rsatishda davlat xizmatchilari mas’uliyatini oshirish, davlat boshqaruvi faoliyati shaffofligi darajasini oshirish.

Iqtisodiy boshqarish sub’ekti sifatida “elektron hukumat”ning vazifalari:

- Maqsadli** – asosiy milliy iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari va prioritetlarini, maqsadini aniqlash.
- Me’yoriylashtiruvchi** – hukumat qonunchilik, me’yoriy - huquqiy bazalariga asoslanib, iqtisodiyot sub’ektlari uchun faoliyat qoidalarini belgilaydi, faoliyat doirasi huquqlarini aniqlaydi.
- Muvofiqlashtiruvchi** – jamiyatning yashash sharoitini ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan mo‘tadillagini ta’minlash va salbiy oqibatlarga olib kelishini bartaraf etish, takomillashuv jarayonlarini rivojlantirish maqsadida iqtisodda resurslarni taqsimlash.
- Ijtimoiy** – hukumat tomonidan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, foydani taqsimlash, ijtimoiy himoyani, ijtimoiy huquq va kafolatni ta’minlash.



3.2.-rasm.Elektron hukumat strukturası.

5. **Bozor sektori bo‘lмаган iqtisodiy boshqarish** - iqtisodning davlat sektorini muvofiqlashtirish, ijtimoiy jamiyat mahsulotlari va xizmatlarini yaratish.

6. **Rag‘batlantiruvchi** – faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlariga samarali ta’sir ko‘rsatish va jamiyat yo‘nalishlari uchun ma’qul bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlantirish.

7. **Nazorat qiluvchi** – davlat nazorati va qonunlar me’yoriy - huquqiy hujjatlar, belgilangan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy standartlar ijrosini nazorat qilish.

“Elektron hukumat”da iqtisodiy vazifalarning bajarilishi budget, moliyaviy-kredit,

tuzulmaviy, investitsion, baholash, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo‘nalishlari mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruv qarorlarining ijrosini ta’minlashda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Axborotning cheklanganligi.

2. Hukumatning qabul qilgan boshqaruv qarorlariga jamiyat munosabatini to‘liq nazorat qila olmasligi. (Jamiyatning qiziqish ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olmagan holda bir tomonlama boshqaruv qarorlari qabul qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin).

3. Siyosiy jarayonlarning takomillashmaganligi (saylovchilar ta’sirida, ijtimoiy guruh qiziqishi, ayrim davlat organlari tomonidan noto‘g‘ri siyosat yuritish va boshqaruvning muvofiq usullarini qo‘llamaslik holatlari va hokazo).

4. Davlat apparatini nazorat qilishning cheklanganligi (boshqaruv xodimlari sonini oshirib yuborish, budget sarf-xarajatining oshib ketishi).

Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda bozor va hukumat kamchiliklarining ta’siri natijasini taqqoslagan holda davlat boshqaruvining optimal shakli va chegaralarini aniqlash mumkin.

Odatda, davlat boshqaruvining to‘rtta modeli amalda keng tadbiq etiladi.

**1. Amerika modeli.** Liberallashgan milliy iqtisodni boshqarish tizimida iqtisodiy jarayonlarda bozor munosabatlarini muvofiqlashtirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Davlat boshqaruvida huquqiy bazalardan foydalanish usuliga asoslanib, jamiyatning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratiladi. Amerika modelida jamiyat va iqtisodni boshqarishda hukumatning aralashuvi juda kam. Bu o‘z samarasini bermoqda. Olimlarning ta’kidlashlaricha, demokratik davlat boshqaruvi jamiyat va iqtisodni dinamik ravishda rivojlanishini ta’minlamoqda.

**2. Yapon modeli.** Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini iqtisodiy va shakllanmagan davlat boshqaruv turli usullaridan foydalanib, markaziy muvofiqlashtirish. Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati bozor munosabatlarini shakllantirish mexanizmi asosida davlat korporativ tuzilmasi yotadi. Bunda jamoaning dunyoqarashi, hamjihatliligi, shaxsning qiziqishi, jamoa va davlat siyosatiga tobelligi asosiy mezon hisoblanadi.

**3. Nemis modeli.** Milliy iqtisodiy-ijtimoiy boshqaruv tizimi asosida bozor munosabatlari (asosan raqobat) va davlat darajasida fuqarolarni samarali ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish yotadi.

**4. Shved modeli.** Davlat ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvida hukumatning bevosita ishtirok etishi asosiy holat hisoblanadi. Bunda asosiy faktor tenglik va hamjihatlilik hisoblanadi, xalqni ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida hukumatning bevosita ishtirok etishi ko‘zda tutiladi.

### **3.3. Elektron hukumat joriy etishning Janubiy Koreya tajribasi.**

Janubiy Koreya elektron hukumatni rivojlantirishda ulkan muvaffaqiyatga erishgan davlat hisoblanadi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat institutlarining hamda aholining davlat boshqaruvidagi elektron ishtirokining rivojlanganlik darjasini bo‘yicha reytingida birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham uning tajribasi so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Janubiy Koreyada elektron hukumatni shakllantirish bo‘yicha tashabbus 2001-yilda yuridik kuchga ega bo‘ldi. Mamlakatda elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur hukumat organlarining ishida samardorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib,

u uch bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan.

Birinchi bosqichda (2001-2003) kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning natijasida Koreyaning hukumat organlari tashqi dunyo bilan Internet orqali uchta asosiy yo‘nalishda-G2C (davlatdan-fuqaroga), G2B (davlatdan-biznesga) va G2G (davlatdan-davlatga) sxemalari bo‘yicha aloqa qila boshladi.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi tizimida idoralararo elektron aloqalarni ta’minlashga qaratilgan axborot-texnologik arxitektura ham ishlab chiqilgan. Unda, xususan, elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo va boshqa texnologiyalar faol qo‘llanilgan. Umumiy hisobda, birinchi bosqich uchun jami 225 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflangan. Natijada, Koreya raqamli imkoniyatlar indeksi bo‘yicha jahonda 4-o‘ringa ko‘tarilib oldi.

- Заданный сканер входит в сферу ФКС и Рентгеноустановки органами Государственной власти и управления?**
- Дорогие сограждане! У Вас появился уникальный шанс задать вопрос любым службам и организациям в одном месте!**
- Мы уважаем возможность подводить к Вам отчеты о работе наших надзоров. Поэтому можно задать нам не Содержание, как это делается сейчас, а наше**
- Полковников подают заявки на получение информации.**
- Дорогой Олег! Какие данные предъявляются при информировании оценки подтверждениями? Транспортные налоги подтверждаются в итоге оформления сроков и прокурса? Заданный складски?**
- Х Спасибо за ваш вопрос.**
- Чем дальше, тем лучше удачнее станет использование прибора учета для?**
- Информация падает вниз.**
- Пожалуйста, определитесь, почему Радио Реклама, Нижегородская компания и подобными налоги не преобразуются. Помимо этого и многочисленных организаций, которые не преобразуются налоги и налоги, налоги? Но гражданам они не являются налогами (расширение №13 Закона №14, №2604) или информации Радио Радио?**
- Сидорова Гульнара Исаевна задает вопрос:**
- Вопрос: почему за один и тот же налог на землю и земельный участок не включаются в него Газеты, газеты и т.д. Почему так долго добавляют эти системы, у меня сколько проблем с этим приводят к неправильному распределению налога на землю. Научились бы и другим, как например ГАЗЕТАМ платить налоги?**

21-rasm. Savol berish bo‘limi.

The screenshot shows the 'Murojaat' (Feedback) form on the e-kommunal website. It includes fields for selecting the service, location, date, subject, and message, along with checkboxes for terms of service and a button to submit the form.

**Данный спрос производится в целях оказания государственных коммунальных услуг**

**Сфера: Комуналный услуги**

**Локация: г. Ташкент**

**Тема: Мирзоходский район**

**Дата обращения:**

**Описание:**


**Благодарю! Вы можете дать мне обратную связь.**

**\* - Отмечены обязательные поля.**

**Я принимаю и принимаю пользовательское соглашение**

22-rasm. Murojaat bo‘limi.

Murojaat bo‘limida murojaat formasini to‘ldiriladi, zarur hollarda esa unga qo‘srimcha fayllarni qo’shish imkoniyati mavjud. So‘ngra foydalanuvchi tomonidan tanlangan soha va toifaga qarab, tizim uning murojaatini tegishli davlat organiga jo‘natadi.



23-rasm. To‘lov varaqasi.

To‘lov varaqasi xizmatida tanlangan communal turi bo‘yicha to‘lov varaqasini xosil bo‘ladi, to‘lov varaqasini to‘ldirilib, chop etish imkoniyati xam mavjuddir.

### **Amaliy bajarish uchun vazifalar:**

1. Interaktiv xizmatlarni o‘rganish.
2. ID.uz yagona identifikatsiya tizimidan ro‘yxatdan o‘ting.
3. Interaktiv xizmatlardan foydalanib davlat tashkilotlariga murojaat yuborishni o‘rganing.
4. Profil bo‘liminizni shakllantiring.
5. Kommunal xizmatlardan foydalananilganib, ma’lumot oling.
6. Kommunal xizmatlarni onlayn to‘lashda xizmatlar ketma-ketligini qarab chiqing.
7. Vijet bo‘limini shakllantiring.

### **Adabiyotlar va internet saytlari:**

1. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2015 yil 9 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda. 3-15 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son Qarori.
3. <http://www.e-kommunal.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>

**2-amaliy mashg‘ulot.**  
**Elektron huqumat interaktiv hizmat tizimlaridan foydalanish.**  
**(4 soat).**

**Ishdan maqsad:** Elektron hukumatning interaktiv xizmatlarini amalda qo‘llash. Ularning resurslari bilan tanishish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchi interaktiv xizmatlar orqali davlat tashkilotlarining resurslari bilan tanishadi va ulardan foydalanishga o‘rganadi.

**Nazariy ma’lumotlar.**

**Elektron hukumat interaktiv xizmatlari turlari.**

“Elektron hukumat” – davlat boshqaruvining elektron hujjat aylanishi tizimi mamlakat miqyosidagi boshqaruva jarayonlarining barchasini avtomatlashtirishga asoslangan, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda jamiyatning har bir a’zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiya xarajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiladi.

Interaktivlik - texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari bilan foydalanuvchilar o‘rtasidagi muloqot. Demak, kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, biz u yordamida kompyuter bilan muloqot o‘rnatamiz.

Interaktivlik muloqot tizimini tashkil etish bilan bog‘liq. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi.

**“Interaktiv xizmat” tushunchasi.** Interaktivlik orqali foydalanuvchi uchun moddiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko‘riladigan manfaat mavjud bo‘lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya’ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat ko‘rsatilgan.

**Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmat turlari.** Hozirgi vaqtida, mamlakatimizda interaktiv xizmatlar tashkil etish, shakllantirish va ularni boshqarishga katta e’tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlar tashkil etishning eng tez va qulayyxshi yo‘li - Internet tarmoqlari orqali amalga oshirishdir.

Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

**Transport vositalarining harakatlanish jadvali.** Respublikadagi transport vositalari harakatlarining jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan transport vositalari qatnovi jadvallari orqali o‘ziga kerakli ma’lumotlarni oladi. Quyida ushbu veb-sahifalar keltirilgan:

<http://www.orexca.com> – sayyoohlar uchun mo‘ljallangan veb sahifa;

**Aviareyslar jadvali.** Aviareyslari bo'yicha ma'lumotlar olish uchun <http://uzairways.com> – "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi veb-sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviaqattnov jadvallari berilgan.


The screenshot shows the Uzbekistan Airways website with flight status information. The main content area is divided into several sections:

- Savol va javoblar**:
  - Turism jurnallari
  - Turismiz krediti xosibagi
  - Turism qurashish yoki shaxsiy turismda bezoqchilik haqida
  - Taxi
  - Ko'z berilgandan so'lib
- Xarid qilalardan oldin**:
  - Aksiyalar satishiga
  - Dorimizda foydalanish
  - Biro'yalar oldimiz
  - Martineva oshchidi
  - Uchib qilishda uchishga ega
- Uchib qilishdan oldin**:
  - Aksiyalar satishiga
  - Dorimizda foydalanish
  - Biro'yalar oldimiz
  - Martineva oshchidi
  - Uchib qilishda uchishga ega
- Aeroportda**:
  - Franzuz jurnali
  - Afrika-savdoning o'simliyi
  - Uzbekiston qalʼogʻi temoglari
  - Qazaxstan qalʼogʻi temoglari
  - Shahar qurashish xizmati
  - Shahar qurashish xizmati
- Karma sahifadagi**:
  - Uzbekistan
  - Uzbekistan
  - Masul xonichisi
  - Qurashish xizmati
  - Uzbekistan havo kompaniyasi

At the bottom, there is a note about the use of personal data and a "Return" button.

**Temir yo'l transporti qatnovi jadvali.** Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin:


[uzrailpass.uz](#) - temir yo'l transport qatnovi jadvali.



**Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari.** O'zbekistondagi barcha banklar haqida ma'lumotlar va yangiliklarni, quyidagi saytlardan olish mumkin:

[www.bank.uz](http://www.bank.uz)


[www.mikrokreditbank.uz](http://www.mikrokreditbank.uz)




[www.agrobank.uz;](http://www.agrobank.uz)  
[www.asakabank.com;](http://www.asakabank.com)  
[www.new.nbu.com;](http://www.new.nbu.com)  
[www.uzpsb.uz;](http://www.uzpsb.uz)  
[www.infinbank.com;](http://www.infinbank.com)  
[www.xb.uz;](http://www.xb.uz)  
[www.ipotekabank.uz;](http://www.ipotekabank.uz)  
[www.csb.uz](http://www.csb.uz)

**Ob-havo ma'lumotlari.** Barcha viloyatlar va Toshkent shahri hamda dunyo mamlakatlaridagi ob-havo haqidagi ma'lumotlarni quyidagi, veb-sahifalardan olishmumkin:


[ob-havo.uz](http://ob-havo.uz)



[www.meteoprog.uz](http://www.meteoprog.uz)



**Yangiliklar.** O‘zbekistonga oid yangiliklarni [uza.uz](#), [gov.uz](#) veb-saytlari orqali olish mumkin.




**Tele va radioeshittirish dasturlari.**


O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi

ma'lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi veb-sahifadan olish mumkin.

[www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)




**Ish o'rnlari birjalari.** Respublika doirasida bo'sh ish o'rnlari topish, aniqlash va muloqot o'rnatish quyidagi veb-sahifalar orqali amalga oshiriladi. [www.myjob.uz](http://www.myjob.uz) saytidan ish o'rnlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni jo'natishingiz va javob olishingiz mumkin.




**Sport yangiliklari.** Respublika va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari, ularga oid barcha ma'lumotlarni:

[www.uff.uz](http://www.uff.uz)



[www.the-uff.com](http://www.the-uff.com)



**Davlat boshqaruvi va xo‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar.**

Interaktiv davlat xizmati – idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda idoralar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko‘rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulyarlaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayrboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishslash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayrboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash.

Bugungi kunda aholiga davlat organlarining veb-saytlari orqali interaktiv davlat xizmatlari asosida **500**dan ortiq turdag'i interaktiv xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Quyidagi veb-sahifalardan Davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi organlar veb-sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarni olish mumkin.

Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari «elektron hukumat» tizimini faol joriy qilmoqda. Bu davlat tuzilmalarini boshqarishga, davlat va tadbirkorlar o'rtaida hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda biznes jarayonlarni samarali rivojlantirishga, shuningdek, fuqarolarga Internet tarmog'i orqali ochiq interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatishga yordam beradi.

Bugungi kunda «elektron hukumat»ning samarali elementlari sifatida 20 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ular quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalı – gov.uz bo'lib, tashkilotlar, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaida elektron-axborot hamkorlik infratuzilmasining tizim hosil qiluvchi elementi hisoblanadi.

Har bir fuqaro yoki korxona, tashkilot, muassasa vakili O'zbekistondagi davlat hokimiyatining barcha elementlari yuzasidan to'liq axborotni olishi mumkin, shuningdek, hokimiyatning u yoki bu organiga gov.uz portalı orqali elektron shaklda rasmiy so'rov yuborishi mumkin. Mazkur portalda Asosiy interaktiv davlat xizmatlarining to'liq ro'yxati chop etilgan.

[E-Kommunal.uz](#) portalı uy-joy, kommunal xo'jaligi sohasidagi umumiy axborot infratuzilmasi bo'lib, aholi, nazorat qiluvchi organlar va uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar o'rtaida axborot almashishni osonlashtiradi. Mazkur portalda O'zbekistondagi uy-joy va kommunal xo'jaligining barcha masalalariga doir axborot, shuningdek tariflar to'g'risida ma'lumot berilgan hatto, barcha kommunal xizmatlarning interaktiv kalkulyatori qulay shaklda joylashtirilgan. Xohlovchilar portalda kommunal xo'jaligi muammolariga oid xabar, fotosuratlarni joylashtirishlari mumkin, davlat hokimiyati tegishli organlari tomonidan ko'rib chiqilib, muammolarni bartaraf etish choralar qo'llaniladi.

- [stat.uz](#), [soliq.uz](#) tadbirkorlik sub'ektlarining elektron shakldagi statistik, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarini to'plash va ishlov berishni avtomatlashtirish tizimi. Davlat soliq qo'mitasi saytida har bir soliq to'lovchi ham yuridik, ham jismoniy shaxs sifatida elektron shaklda xizmatlarning to'liq ro'yxatini olishi, soliq hisoboti yoki daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishi yoxud o'zining soliq to'lovchi identifikatsiya raqamini (INN) olishi mumkin.

Statistika davlat qo'mitasining sayti orqali har qanday tadbirkorlik sub'ekti elektron shaklda statistik hisobotni topshirishi mumkin, yangi firma tashkil etayotganda har bir fuqaro firma nomini rezerv qilishning elektron tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega.

Hozir davlat statistik hisobotining 101 ta shakli (141 ta amaldagi shakldan) Internet tarmog‘i orqali elektron shaklda yuborilishi mumkin. Joriy yilning 1 fevral holatiga ko‘ra, 103 mingdan ortiq firma nomlari elektron shaklda rezerv qilingan.

O‘zbekiston qonunchilik milliy bazasi (lex.uz) 25 mingdan ortiq normativ hujjatni barcha uchun ochiq tarzda o‘z ichiga olgan. Lex.Uz milliy tizimining asosiy maqsadi yuridik va jismoniy shaxslar uchun normativ-huquqiy hujjatlarga keng kirishni ta’minlash yo‘li bilan aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni huquqiy axborot bilan ta’minlash ishlarini takomillashtirishdan iborat.

Ushbu ma’lumotlar bazasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mustaqillikka erishilgandan so‘ng hozirgacha qabul qilingan qonunlar, kodekslari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari hamda boshqa hujjatlari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o‘zbek va rus tillarida joylashtirilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, Lex.Uz milliy bazasi Internet tarmog‘i orqali normativ-huquqiy hujjatlarga bepul kirishni ta’minlovchi O‘zbekistondagi yagona axborot-huquqiy tizim hisoblanadi.

• [uzbekenergo.uz](http://uzbekenergo.uz) - har bir elektr energiyasi iste’molchilari o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlariga kirishlarini ta’minlovchi alohida xona. Har qanday korxona, tashkilot yoki oila elektr energiyasi iste’molchisi hisoblanadi. Mazkur loyiha mamlakatdagi barcha iste’molchilarining elektr energiyasidan foydalanish hisobini qulay interaktiv shaklda nazorat qilish imkonini beradi.

• [evisa.mfa.uz](http://evisa.mfa.uz) - chet el fuqarolari uchun O‘zbekistonga viza olishni rasmiylashtirish onlayn-anketa. Tizim O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi veb-saytining bir qismi bo‘lib, hozirda alohida veb-sahifa sifatida o‘zbek, ingliz va rus tillarida ishlamoqda, kelajakda boshqa tillarda ham ishlashi mumkin. O‘zbekiston - eVisa tizimini joriy etgan dunyodagi to‘qqizinchi mamlakat. Bu mamlakatimizning turistik va biznes salohiyatini oshiradi.

[license.uz](http://license.uz) - amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati va litsenziya hamda ruxsatnama olishning tartib-taomillari, talab etiladigan hujjatlar va boshqa masalalar to‘g‘risida axborot olish imkonini beradigan litsenziyatning yagona portali. O‘zbekistonda litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari doimo qisqaradi va ularni olish tartib-taomillari soddalashtiriladi. Mazkur loyiha axborot va zarur litsenziyalarni olishda ortiqcha rasmiyatichilikni kamaytirishga yordam beradi.

### **Amaliy bajarish uchun vazifalar:**

1. Interaktiv xizmatlarni qarab chiqing.
2. Interaktiv xizmatlardan foydalanib xar-xil tashkilotlarining saytlariga kirib, ma’lumotlarni o‘rganing.
3. Sport, televidenie, ob-havo va boshqa xizmatlardan foydalanilanib, eng yangi va dolzarb ma’lumotlarni oling.

## **Adabiyotlar va internet saytlar:**

1. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2015 yil 9 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda. 3-15 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son Qarori.
3. <http://www.my.gov.uz>
4. [evisa.mfa.uz](http://evisa.mfa.uz)
5. [license.uz](http://license.uz)
6. [lex.uz](http://lex.uz)
7. [stat.uz](http://stat.uz)
8. [www.uff.uz](http://www.uff.uz)

## V. KEYSAR BANKI

1-keys.

### BMTning elektron hukumat rivojlanish reytingi

BMTning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish departamenti har ikki yilda bir marta 193 a'zo mamlakatlar ichida elektron hukumat rivojlanish indeksi reytingini baholash maqsadida surov o'tkazadi. BMTning elektron hukumat rivojlanish reytingi mamlakatdagi qaror kabul qiluvchi shaxslar uchun kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning instrumental vositasi sifatida xizmat qiladi. Elektron hukumat rivojlanish reytingida uch marta ketma-ket 2010, 2012 va 2014 yillar davomida Koreya Respublikasi birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Avstraliya 2-o'rinni, Singapur 3-o'rinni, Fransiya 4-o'rinnlarni egallab, 2012 yilga nisbatan ko'tarilgan (jadval 1.). Shu o'rinda aytib o'tish lozimki O'zbekiston Respublikasi 2012 yil 91-o'rinni va 2014 yil 100-o'rinni egalladi (jadval 2).

1-jadval.

Jahondagi mamlakatlarning 2014 yil holati bo'yicha elektron hukumat rivojlanish reytingi<sup>10</sup>

Country	Region	2014 EGDI	2014 Rank	2012 Rank	Change in Rank (2012–2014)
Republic of Korea	Asia	0.9462	1	1	-
Australia	Oceania	0.9103	2	12	↑ 10
Singapore	Asia	0.9076	3	10	↑ 7
France	Europe	0.8938	4	6	↑ 2
Netherlands	Europe	0.8897	5	2	↓ 3
Japan	Asia	0.8874	6	18	↑ 12
United States of America	Americas	0.8748	7	5	↓ 2
United Kingdom	Europe	0.8695	8	3	↓ 5
New Zealand	Oceania	0.8644	9	13	↑ 4
Finland	Europe	0.8449	10	9	↓ 1

O'zbekiston Respublikasining reytingda tushish sabablari:

- 2014 yil baholash va ma'lumotlarni yig'ish telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va elektron hukumat dasturini amalga oshirish hamda qabul qilish boshlanishiga qadar 2013 yil may oyidan iyun oyiga qadar o'tkazilgan.
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı 2013 yil 1 iyuldan ishga tushirilgan.

<sup>10</sup> United Nations E-Government Survey 2014. E-Government for the Future We Want, Printed at the United Nations, New York, 2014, page-15


2-jadval.

Elektron hukumat rivojlanish reytingida MDH mamlakatlari (2014 yil)

Nº	Mamlakat	O‘rin	EGDI	Nº	Mamlakat	O‘rin	EGDI
1	Estoniya	15	0.8180	9	Moldova Respublikasi	66	0.5571
2	Rossiya Federatsiyasi	27	0.7296	10	Ozarbayjon	68	0.5472
3	Qozog‘iston	28	0.7283	11	Ukraina	87	0.5032
4	Litva	29	0.7271	12	O‘zbekiston	100	0.4695
5	Latviya	31	0.7178	13	Qirg‘iziston	101	0.4657
6	Belarus	55	0.6053	14	Turkmaniston	128	0.3511
7	Gruziya	56	0.6047	15	Tojikiston	129	0.3395
8	Armaniston	61	0.5897				

Elektron hukumat rivojlanish indeksi quyidagi uchta indeks asosida aniqlanadi (1-rasm):

- Onlayn xizmatlar
- Telekommunikatsiya infratuzilmasi
- Inson kapitali



1-rasm. Elektron hukumat rivojlanish reytingi

### ***Onlayn xizmatlar indeksi***

Elektron hukumat rivojlanish reytingining onlayn xizmatlar indeksida 10 milliy veb-saytlar BMT eksperti baholashidan o‘tkaziladi. Bular Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mehnat vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi portallari, Hukumat portalı, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidir. Bunda yuqorida keltirilgan milliy veb-saytlar o‘zlarining fuqarolariga onlayn xizmatlar ko‘rsatish qobiliyati baholanadi.

*BMT onlayn xizmatlar rivojlanishining to‘rtta bosqichi<sup>11</sup>*

*1-bosqich. Axborot xizmatlarining paydo bo‘lish bosqichi*

Davlat organlari veb-saytlari davlat siyosati, boshqaruv, me’yoriy-xuquqiy asoslar, davlat xizmatlari turlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Davlat organlari veb-saytlari vazirliklar va boshqa davlat idoralariga havolalarga ega bo‘ladi. Fuqarolar osonlik bilan davlat organlari haqida ma’lumot olishlari va havolalar orqali xarakat qilishlari mumkin bo‘ladi.

*2-bosqich. Kengaytirilgan axborot xizmatlari*

Davlat organlari veb-saytlari fuqarolar bilan bir tomonlama yoki davlat xizmatlari va tizimlari uchun shakllarni ko‘chirib olish kabi ikki tomonlama aloqalarni ta’minlaydi. Davlat organlari veb-saytlari audio va video imkoniyatlariga va ko‘p tilli interfeysga ega bo‘ladi.

*3-bosqich. Tranzaksiya xizmatlar*

Davlat organlari veb-saytlari davlat siyosati, davlat dasturlari va me’yoriy xujjatlar haqida ma’lumotlar olish va surovlar jo‘natish kabi fuqarolar bilan ikki tomonlama aloqaga ega bo‘ladi. Tranzaksiya muvaffaqiyatli tamom bo‘lish uchun fuqarolardan autentifikatsiya qilish talab etiladi. Davlat organlari veb-saytlari elektron saylov kabi moliyaviy bo‘lmagan tranzaksiyalar, shakllarni ko‘chirib olish yoki joylashtirish, soliqlarni onlayn to‘ldirish, sertifikatlar, litsenziyalar va ruxsatnomalar uchun so‘rovlari jo‘natish operatsiyalarini amalga oshiradi. Shuningdek, ular xavfsiz tarmoq orqali moliyaviy tranzaksiyalarni ham amalga oshirishadi.

*4-bosqich. Bog‘langan xizmatlar*

Davlat organlari veb-saytlari hukumat bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zar munosabat usulini o‘zgartiradi. Axborot, ma’lumotlar va bilimlar hukumatdan fuqarolarga integratsiyalashgan tizimlar orqali uzatiladi. Hukumatga yo‘naltirilgan yondashuvdan fuqarolarga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tiladi. Qaror qabul qilishda fuqarolarning hukumat faoliyatida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishlari uchun muhit yaratiladi.

Bundan tashqari fuqarolarning elektron ishtirok etishi va qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashishlari hukumat tomonidan rag‘batlantiriladi. Bu elektron hukumatning eng murakkab darajasi hisoblanadi. U quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Gorizontal bog‘lanishlar (davlat organlari o‘rtasida);
2. Vertikal bog‘lanishlar (markaziy va mahalliy davlat organlari o‘rtasida);
3. Infratuzilmaviy bog‘lanishlar (moslashuvchanlik);
4. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi bog‘lanishlar;
5. Manfaatdor tomonlar o‘rtasida bog‘lanishlar (davlat organlari, xususiy sektor, ta’lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati).

*Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi*

Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi elektron xizmatlarni yetkazib berish bilan bog‘liq aloqa tarmoqlari infratuzilmasiga taaluqli quyidagi besh asosiy ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat. Har bir holatda Xalqaro elektralogo ittifoqi (ITU) asosiy manba hisoblanadi.

Beshta ko‘rsatkichlar:

1. 100 kishiga nisbatan internet foydalanuvchilar ulushi;
2. 100 kishiga nisbatan telefon liniyalari ulushi;
3. 100 kishiga nisbatan uyali aloqa foydalanuvchilari ulushi;

<sup>11</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-37-38

4. 100 kishiga nisbatan ajratilgan keng polosali tarmoq ulushi;
5. 100 kishiga nisbatan simsiz keng polosali tarmoq ulushi.

### ***Inson kapitali indeksi***

Inson kapitali indeksi ikkita ko‘rsatkichlar: kattalar savodxonlik darajasi va boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni o‘z ichiga olgan yoshlar savodxonlik darajasidan iborat. Kattalar savodxonlik darajasiga 2/3 qism, yoshlar savodxonlik darajasiga 1/3 qism beriladi. Ma’lumotlar asosan YuNESKO ma’lumotlariga asoslanadi va BMTning taraqqiyot dasturi inson rivojlanishi hisoboti bilan to‘ldiriladi.

Inson kapitali indeksini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida quyidagi chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda:

1. Idoralararo ishchi guruhni shakllantirish;
2. Elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston reytingini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarini tasdiqlash;
3. Yagona ochiq ma’lumotlar portalini yanada rivojlanirish;
4. Baholanuvchi davlat idoralari veb-saytlarini takomillashtirish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
5. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Departamenti va YuNESKO bilan yaqin hamkorlikni tashkil qilish;
6. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlarda davlat idoralari matbuot xizmatlarini faollashtirish.

### **2-keys.**

### **“Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari komplekslari va markaziy ma’lumotlar bazasini haqida taqdimotlar tayyorlang**

- Ko‘chmas mult;
- Milliy geoinformatsion tizim;
- Jismoniy shaxslar;
- Yuridik shaxslar;
- Spravochniklar va klassifikatorlar;
- Avtotransport;
- “Kliring” axborot tizimlari kompleksi;
- “Harid” axborot tizimlari kompleksi;
- “Soliq” axborot tizimlari kompleksi;
- “Bojxona” axborot tizimlari kompleksi;
- “Litsenziya” axborot tizimlari kompleksi;
- “Sog‘liqni saqlash” axborot tizimlari kompleksi;
- “Ta’lim” axborot tizimlari kompleksi;
- “Kommunal” axborot tizimlari kompleksi;
- “Adliya–2” axborot tizimlari kompleksi;
- “Davlat boshqaruvi” axborot tizimlari kompleksi;
- “Nafaqa” axborot tizimlari kompleksi;
- “Budjet” axborot tizimlari kompleksi.

## VIII. GLOSSARIY

Tushuncha o‘zbek tilida	Ta’rifi	Tushuncha o‘zbek tilida
<b>Elektron hukumat</b>	davlat organlari ko‘rsatayotgan xizmatlarning shaffofligi, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish tizimi	E-government
<b>Elektron hukumatning prinsiplari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;</li> <li>- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;</li> <li>- «yagona darcha» prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish;</li> <li>- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;</li> <li>- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;</li> <li>- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;</li> <li>- axborot xavfsizligini ta’minalash.</li> </ul>	E-government principles
<b>G2C</b>	Davlat-fuqarolarga fuqarolar turli ma’lumotlar, xizmatlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’milanadilar.	G2C
<b>G2B</b>	Davlat→biznesga hukumat va biznes o‘rtasidagi munosabatlар va o‘zaro bir qator aloqalarni ta’minalaydi.	G2B
<b>G2G</b>	Davlat-davlatga davlat ichida yoki davlat idoralari o‘rtasidagi turli axborotlarni almashish va hamkorlikni qo’llab-quvvatlashni ta’minalash.	G2G
<b>G2E</b>	Davlat-xodimlarga ichki jarayonlarini soddallashtirish va fuqarolik xizmati, davlat va uning xodimlari o‘rtasidagi aloqa boshqaruvini osonlashtirish orqali unumдорligini oshiradi.	G2E
<b>G2N</b>	davlat boshqaruv organlari bilan notijorat tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari	G2N
<b>Integratsiyalashgan milliy moliya axborot tizimi</b>	Turli davlat idoralarida real vaqtida boshqariluvchi moliya soxasiga tegishli bo‘lgan tizimlar bir-biriga o‘zaro bog‘lash orqali tashkil qilingan	Integrated National Financial Information System
<b>Mahalliy elektron</b>	ma’muriy ishlarni standartlashtirish va	Local e-

<b>hukumat axborot tizimi</b>	axborotlashtirish orqali mahalliy hukumat boshqaruvi tizimidagi xizmatlar	Government Information System
<b>Ta'lim axborot tizimi</b>	Maktablar, ta'lim viloyat ofislari va ularning tuman idoralari, Ta'lim vazirligi va inson resurslarini rivojlantirish muassasalari o'rtasida umummilliy axborot tarmog'i	Educational information system
<b>Hukumat elektron xujjat almashinuvi</b>	elektron qayta ishslash, barcha davlat hujjatlarini tayyorlash, tasdiqlash, saqlash va tarqatish tarmog'i	State electronic document management
<b>Biznes jarayonlarni maqbullashtirish</b>	ishni olib borish jarayoni oqimi yoki pog'onalararo oqimini qayta ishlab chiqish bilan jarayonning samaradorligini oshirish	Business Process Optimization
<b>Elektron hukumatni joriy etishning 1-chi bosqichi</b>	veb portallarning yaratilishi hukumatni elektron tarmoq tuzilmasiga chiqishi bilan xarakterlanadi	1-stage of the introduction of e-government
<b>Elektron hukumatni joriy etishning 2-chi bosqichi</b>	veb portal ishtirokida hukumat saytlari orqali foydalanuvchilarga maxsus va yangi ma'lumotlarni ko'plab taqdim etilishi	2-stage implementation of e-government
<b>Elektron hukumatni joriy etishning 3-chi bosqichi</b>	interaktiv veb portallar aholiga xizmat ko'rsatish bilan birga, davlat tuzilmalari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning izchilligini oshiradi	3-stage implementation of e-government
<b>Elektron hukumatni joriy etishning 4-chi bosqichi</b>	foydalanuvchi uchun axborot oqimi veb portali tarmoq orqali hujjatlarni olish va kelishuvlarga erishishni ta'minlaydi	4-stage implementation of e-government
<b>Elektron hukumatni joriy etishning 5-chi bosqichi</b>	to'liq integrallashgan veb portal hukumat portali tarmog'i orqali xizmat ko'rsatish va bog'lanishni ta'minlaydi, tarmoq foydalanuvchisiga ixtiyoriy xizmatni o'z vaqtida olishini ta'minlaydi	5-stage implementation of e-government
<b>Yagona oyna</b>	kerakli ma'lumotlarni bitta "oyna" orqali olib ishlatish tizimi, haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko'rsatadi	single window
<b>Elektron hukumatning 1-chi elementi</b>	Elektron vositalar yordamida ommanning fikrini (fuqarolar tarmog'i, ovoz berish va boshqalar) shakllantirish va qarorlar qabul qilishga asoslangan elektron demokratiya hamda ishtirok	The first element of e-government
<b>Elektron hukumatning 2-chi elementi</b>	Elektron vositalar yordamida o'zaro ommaviy, xususiy va ommaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik shakli elektron foydalanish tarmog'i	The second element of e-government
<b>Elektron</b>	Foydalanuvchilarga, xususiy shaxs yoki	3rd element of e-

<b>hukumatning 3-chi elementi</b>	jamoaga mahalliy, hududiy yoki milliy portal orqali xizmatni taqdim etishga asoslangan ommaviy elektron xizmat	government
<b>my.gov.uz</b>	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	my.gov.uz
<b>Interaktiv davlat xizmati</b>	idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda idoralar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar	Interactive public service

## **VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T, 2021

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevral“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston

Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasinitasdiqlashto “g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 may “[«Elektron hukumat» tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4328-sonli](#) Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabr “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 aprel “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevral «Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

25. Zaynidinov X.N., Yakubov M.S., Koraboev J. Elektronnoe pravitelstvo // Akademiya gosudarstvennogo upravleniya pri Prezidente Respubliki Uzbekistan, Koordinatsionnyy komitet po razvitiyu nauki i texnologiy pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan. –T.: Akademiya, 2015.- 175 s.

26. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>

27. NagYeonLeeandKwangsokOh. Ye-Government Applications. - RepublicofKorea: Scand-MediaCorp. Ltd.,2016.

28. Sifrovaya ekonomika. Pod redaksiey L.A.Karginoy. M., 2020.

29. Gulyamov S.S., R. X.Ergashev.,Xamraeva S.N., M.Abdullaev. Raqamli iqtisodiyot. TDIU.Qar.MII, 2020y, 365 bet. .

30. Teshaboev T.Z. Gulyamov S.S. v.b. Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari. Izohli lug‘at, TMI, 2021 yil, 259 bet.

31. Bobojonov A. B. “Raqamli biznes modellar” fani bo‘yicha o‘quv qo’llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2021, 207 b.

### **IV. Internet saytlar**

32. <http://www.mtc.uz>- O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi

33. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

34. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

35. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
36. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
37. <http://www.tuit.uz> - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
38. <https://www.litres.ru/1ps-ru/smm-dlya-novichkov/>
39. <https://zillya.ua/ru/check-password>
40. <https://habr.com/ru/post/21822/>